

Radjabova Jasminabonu Shavkatovna

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Usarova Laylo Ibragimovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk so'z ustasi bo'lgan Alisher Navoiy asarlarida qo'llagan she'riy san'atlardan biri tazod haqida. Maqolada muallifning g'azal va ruboiylarida qo'llangan tazod va uning tahlili haqida gap ketadi. Badiiy san'atlardan lirikaning badiiy ta'sirchanligini oshirish uchun foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ruboiy, tuyuq, g'azal, tazod, lirika, so'z ustasi, ijod.

She'riy san'atlar badiiy kerakli o'rinlarda turadi. Ular g'azallar, ruboiy, tuyuq kabilarda o'z o'rnini ko'rsatadi, badiiyligini kuchaytiradi. She'riy san'atlardan eng keng tarqalgani tazod san'ati hisoblanadi. Bu san'at Navoiy asarlarida ham ko'p uchraydi.

“ Tazod – (arabcha. Qarshilantirish, zid) san'atida shoir she'rida qarama-qarshi, bir-biriga zid ma'noli so'zlarni qo'llaydi”. {1:168}

Alisher Navoiy lirikasida tazod namunalarini tahlil qilar ekanmiz, shoirning bu san'atdan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Navoiyning quyidagi ruboiysi fikrimizni tasdiqlab beradi:

Gar oshiq esang zeb-u takallufni unut

Yaxshi-yu yomon ishda taxallufni unut

O'tkan gar erur yomon taassufni unut

Kelgan gar erur yaxshi tasarrufni unut

Bu ruboiyda tazod “yaxshi” – “yomon” , “o'tkan” – “kelgan” so'zlarida yuzaga kelgan. Bu so'zlar bir-biriga zid ma'noni anglatadi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda tazod uchun soʻzlar baʼzi hollarda farqli holatlarda uchraydi. Masalan, yuqoridagi ruboiyda “oʻtgan” va “kelgan” soʻzlari bir-biriga zid holatda qoʻllangan. Bu soʻzlar alohida olinganda, matndan tashqarida zid maʼnoni toʻlaqonli ifodalamaydi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, zid maʼnoli hisoblanmaydi. Navoiyning bu soʻzlardan tazodni yuzaga keltirganligi uning soʻz ustasi ekanligining isbotidir.

“ Tazod yuzakiroq qaraganda antiteza usuliga ham oʻxshaydi. Ularning har ikkisida ham bir-biriga zid tushunchalar yuzlashtiriladi, ayni choqda ularning bir-biridan farqli jihati ham bor. Antitezada toʻqnashuvchi bir-biriga zid narsalar ikki mustaqil manbadan kelib chiqsa, tazoddagi toʻqnashuvchi bir-biriga zid narsalarning kelib chiqish manbayi yagonadir”. {2. 381}

Haqiqatan ham, tazodni antitezaga oʻxshatish tabiiy hol. Lekin ularning bir-biridan farqini ham aytib oʻtish joiz boʻladi. Shuningdek Navoiy lirikasidagi tazodni quyidagi bayt misolida ham koʻrib oʻtishimiz fikrni yanada mustahkamlaydi.

Seni topmoq base mushkuldurur, topmasligʻ osonkim,

Erur paydoliqʻing pinhon, vale pinhonligʻing paydo.

Alisher Navoiyning bu bayti “Gʻaroyib us-sigʻar” da keltirilgan taxallussiz gʻazallarining biridan olingan. Yuqoridagi baytda tazod shunchalik oqillik bilan keltirilganki, bir-birining mazmunini taʼkidlaydi. “Mushkul” va “oson” soʻzlaridagi tazod baytning maʼnosini chuqurroq anglatishga koʻmaklashmoqda. “Seni topish mushkul, lekin topmaslik-oson“ deydi shoir. Ikkinchi misrada “pinhon” va “paydo” soʻzlarini oʻzaro qarama-qarshi holatda qoʻyib misra mazmunini kengaytirmoqda. Navoiy soʻz jilosidan har bir asarida unumli foydalangan. Davlatshoh Samarqandiy taʼkidlab oʻtganidek, “aning nazmi vafida til qosi va bayon ojiz”. {3. 2}

Navoiyning barcha asarlarida ishq-muhabbat birinchi oʻrinlarda turadi. (Erkin Vohidov). Najmiddin Komilov shunday deydi: “Navoiy buyuk oshiqdir, uning musaffo tuygʻulariga zamin tor kelib, ishq osmonlarga uchgan”.

Navoiyning lirikasida tazodning o'рни juda muhim. Uni tazoddan kerakli o'rinlarda qo'llay olish qobiliyatiga ega deb aytish mumkin. Bu quyidagi baytda yaqqol namoyon bo'ladi:

Ko'zlaringdin necha suv kelgay, deb o'lturmang meni

Kim bori qon erdi kelgan bu kecha suv kelmadi.

Avvalgi misrada "mendan ko'zlaringga qachon suv keladi deb so'ramang" deyayotgan shoir kitobxonga ikkinchi misra orqali javobini ham yetkazmoqda: "ko'zlarimdan qon keldi, bu kecha suv kelmagay". U tazodni "suv kelgay" va "suv kelmagay" birikmalari orasida qo'llagan. Bu esa o'quvchida hayrat tuyg'usini yuzaga keltiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish munkinki, Navoiy lirikasi har bir she'riy san'atning o'z o'рни, o'z ma'nosi mavjud. Shu jumladan, tazod san'ati ham shoirning lirikasida o'z o'rniga, o'z mavqeyiga ega. Navoiy har bir asarining asosiy g'oyasi etib oshiq va uning holini belgilagan deyishimiz mumkin. Chunki biz tahlil davomida amin bo'ldikki, sof tuyg'u she'rni ta'sirchan qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hotam Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" T-2004
2. To'xta Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari" T-2002
3. Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" mutolaa. Uz
4. www.bilimlar.uz elektron sayti